

# ILM FAN XABARNOMASI

## Ilmiy elektron jurnali

### TA'LIM MUASSASASINING INNOVATSION FAOLIYATINI BOSHQARISH HAMDA NAZORAT QILISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*Maqsudov Abdulaziz Sardor o'g'li*

*Abdulla Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti xodimi,  
Oriental universiteti "Ta'lim menejmenti" magistranti*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ta'lim muassasasining innovatsion faoliyatini boshqarish hamda nazorat qilishning o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, innovatsiya, boshqaruv, o'quvchi, o'qituvchi, tizim, ilm-fan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida" 2021-yil 1-apreldagi PF-6198-son farmoni hamda "Ilm-fan sohasidagi davlat siyosati va innovatsion rivojlantirishdagi davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 1-apreldagi PQ-5047-son qarori mamlakatimizda ta'lim muassasalarining innovatsion faoliyatini joriy etish xususiyatlari, uning ahamiyati va zaruriyatidan kelib chiqqan holda vazifalar belgilangan.

Ta'lim muassasasining innovatsion faoliyatini joriy etishda innovatsiyalarni yaratish va amalga oshirish jarayonlari ham muayyan sikllardan iboratdir. Ushbu nuqtai nazardan olib qaralsa, innovatsion jarayon vaqt o'lchamlarida izchil davom etuvchi, ahamiyati jihatidan bir xil bo'lgan turli xil bosqichlarda funktsional jihatdan alohida mazmun kasb etib bir-biridan farqlanadigan faoliyat yig'indisidir.

Innovatsiya uchun asos bo'lib xizmat kiluvchi fundamental g'oya va bilimlarning, ularni amalda qo'llash quyidagi natijalarga olib keladi:

- istiqbolli bo'lmaydigan loyihalarni aniqlab olish va to'g'ri qaror chiqarish;
- innovatsion g'oyani amaliyotga tatbiq etish jarayonida yanada takomillashtirish;
- yangilikni texnologik xususiyatlariga, boshqaruv va tashkiliy faoliyat yuritish uchun mas'ul bo'lgan tizimlarning xarakteriga moslashtirish imkoniyati bo'ladi.

Innovatsion potentsialning moliyaviy resurslardan foydalanish funktsiyalari esa:

- innovatsiyalarni joriy etish uchun talab etiladigan moliyaviy resurslarning kelib tushishini ta'minlash;
- moliyaviy resurslarning innovatsion jarayonlarning mos holda ta'minlanish sharoitini yaratish;
- innovatsion jarayonlarning amalga oshirilishini takomillashtirish;
- innovatsiyalarning yaratilishi uchun shart-sharoit yaratib berish va rag'batlantirish;
- mavjud innovatsion tizimning funktsional faoliyati va rivojlanishi bilan bog'liq turli xil ehtiyojlarga mos keladigan innovatsion loyihalarning yaratilishiga ko'maklashish;
- innovatsion loyihalarni xarajatlarning optimal va samaradorligini ta'minlash.

Y. Shumpeter innovatsion sohada faoliyat yurituvchi sub'ektlarning quyidagi funktsional vazifalarini belgilab beradi:

- innovatsiyalarni o'zlashtirishdan manfaatdor bo'ladigan potentsial iste'molchilarni aniqlash maqsadida tijorat tahlilini amalga oshirish;
- istiqbolli g'oyalar mualliflarini, funktsional faoliyat yuritish uchun imkoniyat beruvchi manbalarni izlab topish;
- yangiliklarni yaratish va ularni amaliyotga joriy etish jarayonlarini tashkillashtirish;
- yangiliklarning amaliyotga joriy etilishini qo'llab-quvvatlash.

- ilm-fan sohasida kashf etilgan yangi g'oyalarning moddiy tusga kiritilishi bosqichida innovatsion faoliyat sohasidagi novatorlik mehnatini yaxshilash;

Guruhdagi o'zaro shaxsiy munosabatlarni o'qituvchi, jamoa shakllanishiga qadar bo'lgan bosqichda maqsadli tashkil etishi lozim. Buning uchun u yuqori darajada rivojlangan kommunikativ o'quvga-munosabat va aloqalar o'rnatishga moyillik va iqtidor, ta'lim oluvchilarni tushuna bilishga ega bo'lishi kerak.

S.V. Kondrat'evaning ma'lumotlariga ko'ra o'qituvchining ta'lim oluvchilarni tushunish darajasi va uning ularga ta'siri qandayligi o'rtasida muayyan o'zaro bog'liqlik mavjud. Tushunish darajasi yuqori bo'lgan o'qituvchida xarakterni shakllantiruvchi ta'sir birinchi o'rinda turadi, tushunish darajasi past bo'lgan o'qituvchida esa-intizomiy ta'sirdir.

Agar o'qituvchi ta'lim oluvchilar faoliyatini tashkil etishga yetarli e'tibor bermasa, bunda intizomni saqlab turish uchun ko'p kuch va vaqt sarflashiga to'g'ri keladi.

Ta'lim oluvchilar shaxsiga ijobiy munosabat va rag'batlantirish tizimi pedagogik muloqot samarasining muhim qismi hisoblanadi. Samarali rag'batlantirish mazmuni va mezonlari (P.Massen, J.Konjer va b. bo'yicha) quyidagicha:

1. Rag'batlantirish muntazam amalga oshiriladi.
2. O'qituvchi ayni nima rag'batlantirishga loyiqiligini tushuntirib beradi.
3. O'qituvchi ta'lim oluvchilar muvaffaqiyatiga qiziqish bilan qaraydi.
4. O'qituvchi muayyan natijalarga erishganlikni rag'batlantiradi va ta'lim oluvchilarga buning mohiyatini tushuntiradi.

5. Yaxshi natijalarga erishish maqsadida o'quvchilarni o'z ishlarini tashkil eta bilishlikka o'rgatadi.

6. Har bir ta'lim oluvchining rag'batlantirish u sarflagan kuch-g'ayratga muvofiq bo'lishi kerak.

7. O'qituvchi erishilgan natijani unga sarflangan kuch-g'ayrat bilan bog'laydi va bunday muvaffaqiyatga kelgusida ham erishish mumkinligini bildiradi.

8. Oldingi topshiriq bajarilgandan so'ng yangi ishga qiziqish uyg'onishiga harakat qiladi.

9. Ta'lim oluvchilarning e'tiborini o'zlashtirishning yuqori bo'lishligi mazkur ta'lim oluvchilar imkoniyatlaridan to'la foydalanishga bog'liq ekanligiga qaratadi.

O'qituvchi pedagogik muloqot innovatsion jarayonida o'quv-tarbiyaviy jarayonni boshqarish bo'yicha lavozim majburiyatini amalga oshiradi. Shu ma'noda o'qituvchining o'quvchi bilan munosabati boshliqning o'ziga bo'ysunuvchi bilan bo'lgan munosabatiga o'xshaydi, uni boshqarishda ham rahbar qo'llaydigan uslubdan o'qituvchining foydalanishi mumkin. Innovatsion jarayonni amalga oshirishda o'qituvchi (yoki rahbar) va o'quvchi (bajaruvchi) ishining o'ziga xosliklarini ta'kidlash zarur.

O'qituvchi bir necha jamoani va bajarilayotgan o'quv ishlarini (ma'ruza, laboratoriya ishi, amaliy mashg'ulot, seminar va h.k.) boshqaradi. Bir necha jamoani boshqarish oqibatida ularning har biri bilan ishlash vaqti nisbatan katta emas. Bu o'ziga innovatsion xoslik o'qituvchidan ayrim shaxslarni, ayrim jamoani o'rganish bo'yicha jadal ruhiy ishlashni talab qiladi.

O'zaro hamkorlik va o'zaro ko'maklashuvni ta'lim muassasalarida o'qituvchilarni motivlashtirish ham katta ahamiyatga ega.

Motivlash ikki turi bilan farqlanadi:

- Muvaffaqiyatni motivlash;
- Muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqishni motivlash.

Muvaffaqiyatni motivlash ijobiy tavsifga ega. Ta'lim oluvchilarning harakati yaxshi natijalarga erishish uchun yo'naltiriladi. Shaxsiy faollik muvaffaqiyati ta'lim innovatsiyasi ta'siriga ega. Motivlashning yuqorida qayd etilgan turlaridan tashqari ta'lim muassasasida o'quv

faoliyati natijalariga kasbiy motivlash omili sezilarli innovatsion ta'limga ta'sir ko'rsatadi, bunda ijobiy munosabat muhim ahamiyatga ega.

Bozor shart-sharoitlarida o'z hayotiy layoqatini barqaror saqlashga intiladigan har qanday ta'lim muassasasi pirovard natijada ilm-fan sohasida yoki kadrlar tayyorlash tizimida biron bir yangilikni yaratishga, yangi g'oyalarni amalga oshirishga, ya'ni g'oyalarning moddiylashtirilishiga hamda bozorlarda salohiyat xaridorlarga sotilishiga erishishi lozim. Ta'lim muassasalarining faoliyatini tijoratchilik asosida yo'lga qo'yilishi ularni funktsional vazifalaridan birmuncha chalg'itishi mumkin albatta, ammo ilmiy-innovatsion faoliyat bilan shug'ullanish oxir oqibatda o'quv yurtlariga moddiy jihatdan o'z-o'zini ta'minlash imkoniyatini yaratib beradi.

Respublikamiz miqyosida amal qiluvchi innovatsion muhitning yaratilishi barobarida ta'lim muassasalarining innovatsion faoliyatini faollashtirish ob'ektiv ehtiyojga aylangan. Innovatsiyalarni yaratish va amalga oshirish jarayonlari ham muayyan sikllardan iboratdir. Ushbu nuqtai nazardan olib qaralsa, innovatsion sikl vaqt o'lchamlarida izchil davom etuvchi, ahamiyati jihatidan bir xil bo'lgan turli xil bosqichlarda funktsional jihatdan alohida mazmun kasb etib bir-biridan farqlanadigan faoliyat majmuasidir.

O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonida mamlakatimizda ta'lim muassasalarining innovatsion faoliyatini joriy etish xususiyatlari, uning ahamiyati va zaruriyatidan kelib chiqqan holda vazifalar belgilangan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-sonli qarorida ta'lim sifatini oshirish masalalari bo'yicha vazifalar uzluksiz ta'lim tizimining har bir bo'g'ini uchun alohida ajratib ko'rsatilgan bo'lib, bu vazifalarni amalga oshirishda ta'lim texnologiyalarini qo'llash asosida o'qitish jarayonini tashkil etish ham o'z ahamiyatiga ega.

Amaliyotga joriy etiladigan innovatsiyalar jamiyat tomonidan e'tirof etilishi oqibat natijada vujudga keladi. Bu xususda quyidagi global tendentsiyalarni alohida ko'rsatib o'tamiz:

1. Ta'lim tizimini demokratlashtirish, ta'lim tizimining barcha bosqichlarida uzluksizlik va uzviylikni ta'minlash, ta'lim muassasalari mustaqilligini mustahkamlash.
2. Aholining barcha qatlamlari uchun ta'lim olishga teng imkoniyatlar yaratish.
3. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning ta'lim oldiga yangi vazifalar qo'yishi. Kasb o'rganish uchun ta'lim olish bilan birga kelajakda ishlash uchun emas, balki o'z shaxsiy ehtiyoji uchun ta'lim olishning rivojlanib borishi va boshqalar.

Ularni amalga oshirishda innovatsion ta'limning quyidagi rivojlanish printsiplari asosida ish olib borilishi lozim.

- Ta'lim va amaliyotning o'zaro uzviy bog'liqligini ta'minlash, kadrlarni amaliyotda ishlashga tayyorlash;
- Ilm-fan yutuqlarini ta'limga keng joriy qilib borish;
- Ta'limning uzluksizligi va uzviyligini ta'minlash, hayot mobaynida uzluksiz ta'lim;
- Bitiruvchilarning korporativ hamkorligini ta'minlash, ta'lim muassasalari an'analarini shakllantirish va rivojlantirib borish;
- Ta'lim va tarbiyani qo'shib olib borish, yuksak ahloqiy fazilatlarini tarbiyalash;
- Yuksak ma'naviy fazilatlariga ega bo'lgan intelligentsiyani tarbiyalash.

Innovatsiyalarni ta'lim jarayonlariga tatbiq etishning istiqbollari:

- Ta'lim muassasalari moddiy-texnika bazasini modernizatsiya qilish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan ta'lim jarayonida samarali foydalanish, masofaviy ta'limni joriy etish.

- Ta'lim muassasalarining mintaqaviy va xalqaro miqyosda integratsiyalashuvi, ta'lim sohasidagi xalqaro hamkorlikning rivojlanib borishi;

• Ta'lim muassasalarini moliyalashtirish manbalarining ko'payib borishi, byudjetdan tashqari moliyalashtirish;

• Ta'lim sifatini boshqarishga xalqaro standartlar talablarini joriy etishni tashkil etadi.

O'quv yurtlari o'rtasidagi integratsion aloqalar o'rnatish natijasida innovatsion faollikning ahamiyati quyidagicha:

1. Amaliy tadqiqotlarning shakllanish ko'nikmalari, professional yechimlarni qabul qilishga yordam beradi;

2. Bilimlarni samarali o'zlashtirish imkonini yaratadi;

3. Bilimlarni to'plashdan mustaqil ta'lim olish mexanizmlarini yaratish va tadqiqot faoliyati ko'nikmalariga o'tish jarayoni rivojlantirish imkonini yaratadi;

4. O'quvchilarning qobiliyatlarini shakllantirish va ularda bilim ko'nikmalarini mustahkamlaydi;

5. Ijodiy va kasbiy bilim qobiliyatini rivojlantiradi;

6. O'quvchilarning sotsial moslashuvi uchun psixologik shart sharoitlar yaratadi.

Milliy ta'lim tizimlari innovatsion faollik ular faoliyatiga ta'sir kursatib kelmoqda, ular bir-biridan taraqqiyot darajasi, maqsad va vazifalari, milliy va tarixiy xususiyatlari, an'analari, aholini qamrab olish darajasiga ko'ra keskin farqlanadi.

Ta'lim tizimini rivojlantirish uchun mamlakatimizning ilmiy-texnik va innovatsion potentsialini barqaror saqlash xamda rivojlantirish zarur. Buning uchun quyidagi yunalishlar bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishi kerak:

- mavjud qonunchilikka innovatsion sohadagi faollikni yanada jadallashtirish uchun qulay shart-sharoit yaratib beradigan yangi takliflar kiritish;

- ilm-fanni rivojlantirish va innovatsiyalarni yaratish uchun, ilm-fan yutuqlaridan keng ko'lamda foydalanish asosida innovatsion faoliyat sub'ektlarini va ulardagi faollarni qo'llab-quvvatlash;

- yaratiladigan innovatsion loyihalarni ro'yobga oshirish bilan bog'liq bo'lgan barcha ishlarni muvofiqlashtirib boshqarib boradigan maxsus innovatsion guruhlarini yaratish;

- bilimli, tajribali professional ilmiy-texnik xodimlar, olimlar va mutaxassislardan tarkib topadigan innovatsion loyihalarni ishlab chiqib ularni ro'yobga oshirish bilan bog'liq chora-tadbirlarni rejalashtiradigan, keyinchalik ushbu faoliyatni boshqarib turadigan ta'lim muassasalararo Forsayt markazlarini tashkil qilish.

Innovatsion guruhlar faoliyati va undagi faollikni tartibga solish mexanizmlarini boshqaruv funksiyalari orqali muvofiqlashtirib borish quyidagilarni amalga oshirishga bog'liq:

- ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnik istiqbollarni to'g'ri belgilash;

- turli xil ilmiy izlanishlarni va innovatsiyalarni amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan mablag'larni akkumulyatsiyalash;

- innovatsion faoliyatni muvofiqlashtirish;

- innovatsiyalarni rag'batlantirish; innovatsion sohada raqobatchilikni kuchaytirish va ta'lim tizimidagi innovatsion faoliyatni amalga oshirishda salohiyatli kadrlar ta'minotiga ahamiyat berish;

- ilmiy-innovatsion infratuzilmani shakllantirish;

- amalga oshirilishi mo'ljallangan innovatsiyalarning ijtimoiy va iqtisodiy yo'nalishli bo'lishligini ta'minlash;

- ta'lim tizimida innovatsion faoliyatning ijtimoiy mavqeini ko'tarish;

- ta'lim tizimida innovatsion jarayonlarni regional miqyoslarda tartibga solish;

Yurtimizning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy sohalarida bo'layotgan tezkor o'zgarishlar ta'lim tizimini ham tubdan isloh qilishni taqozo etmoqda, chunki mukammal ta'lim tizimi orqali respublikamizning kelajak intellektual imkoniyatlarini va uni gullab yashnashi

hamda rivojlanishini belgilab beruvchi yoshlarni har tomonlama ijodkor, mustaqil faoliyat yuritadigan etib tarbiyalashda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Shuning uchun ta'limda eng muhim strategik yo'nalish bo'lib, ta'lim muassasalarini innovatsion faoliyati hisoblanadi. Bu esa barcha ta'lim muassasalarida, ayniqsa ijodkor, yuqori salohiyatli mutahassis pedagog kadrlarni tayyorlovchi oliy ta'lim orqali intellektual mulkni tayyorlash va intellektual mulk tizimini innovatsion faoliyat ko'rinishida amalga oshirish bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi. Rivojlantiruvchi maqsad: egallangan bilim ko'nikma va malakalarni ijodiy qo'llash, mustaqil ishlash, ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat.

*Innovatsion texnologiyalar ta'lim taraqqiyotida tutgan roli.* Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo'lgan ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, unga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta'lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. «Ta'lim to'grisida»gi Qonun va «Kadrlar tayorlash milliy dasturi»ning qabul qilinishi bilan uzluksiz ta'lim tizimi orqali zamonaviy kadrlar tayyorlashning asosi yaratildi. Ma'lumki, uzluksizlik va uzviylik ta'lim tizimida, avvalo, jamiyatning ma'naviy va intellektual salohiyatini kengaytiradi, qolaversa, davlatning ijtimoiy va ilmiy taraqqiyotini takomillashtirish omili sifatida ishlab chiqarishning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi va ularning o'quv-tarbiya jarayoniga kirib kelishi, shuningdek, axborot texnologiyalarining tezkor almashinuvi va takomillashuvi jarayonida har bir inson o'z kasbiy tayyorgarligini, maxoratini kuchaytirish imkoniyati yaratiladi.

Ta'limning barcha bosqichlariga oid umumiy pedagogik va didaktik vositalari, o'quvchi (yoki o'quvchi)ning dasturiy bilim, tasavvur va ko'nikmalari asosida mustaqil ishlash samaradorligini takomillashtirish, ilmiy fikrlashga, o'quv faniga qiziqishini kuchaytirish, kasbiy bilimlarini chuqurlashtirish, nazariy va amaliy mashg'ulot mobaynida ularning faolligini oshirishdan iboratdir. Jahon pedagogik tajribasi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarining o'quvchi (yoki o'quvchi)larni fanlarga qiziqitirishga, ularning mustaqil ishlashda faolliklarini oshirishga imkoniyati cheksiz ekanligini tasdiqlamoqda.

Ta'limning bugungi vazifasi o'quvchilarni kun sayin oshib borayotgan axborot ta'lim muxiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko'rsata olishga axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iboratdir. Buning uchun ularga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish zarur.

Shunga ko'ra yoshlarning talab va istaklaridan kelib chiqqan holda umumkasbiy fanlarni axborot kommunikatsion texnologiyalar orqali tayyorlab, yoshlarning yanada bilim va ko'nikmalarini shakllantirishga harakat qilish bugungi kun dolzarb muammosi desak xato qilmagan bo'lamiz.

*An'anaviy ta'limdan innovatsion ta'limga o'tish*

Shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi (yoki o'quvchi)larni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatib kelingan edi. Bunday usul o'quvchi (yoki o'quvchi)larda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, tashabbuskorlikni so'ndirar edi. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol uslublar (innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalari) dan foydalanib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish desak afzaldir. Ta'limga bo'lgan e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda.

Zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar o'quvchi (yoki o'quvchi)lar egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan.

# ILM FAN XABARNOMASI

## Ilmiy elektron jurnali

O'qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bunday o'quv jarayonida o'quvchi (yoki o'quvchi) asosiy figuraga aylanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Zayniddinov Sh.N., Murakayev I.U., Shermuhamedov A.T., Sagdullayev D.T., Kucharov A.S. Menejment asoslari. O'quv qo'llanma.- T.:Moliya, 2001.
2. Toshniyozov M., Sharifboyev I., Obidov O., Korxonalarda boshqaruv faoliyati asoslari. Darslik - T.:O'zbekiston , 1995.- 134 b.
3. G'ulomov S.S., Dodobayev Yu.T., Osmonov M.O., Xodimlarni boshqarish. O'quv qo'llanma.- Farg'ona:Quvasoy tadbirkorlik o'quv ilmiy ishlab chiqarish markazi ,2000.- 252 b.
4. Zayniddinov Sh.N., Nurimbetov R.I., Personalni boshqarish. O'quv qo'llanma.- T.:Yangiyul Poligraph Service, 2007.- 318 b.
5. Yo'ldoshev N.Q., Azlarova M.M., Xodjamuratova G.Y. Menejment va marketing asoslari. O'quv qo'llanma. T. TDIU, 2012 y. -258 b.